

**XORAZM VOHASI QO'SHIQCHILIK SAN'ATIDA  
FOLKLORIZMLAR**

**Yusupbayev Mardonbek Shonazar o'g'li**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Xalq ijodiyoti(folklor va etnografiya) mutaxassisligi magistr talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm vohasi milliy qo'shiqchilik san'ati va uning rivojlanish boqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, Xorazm vohasi milliy qo'shiqchilik san'atida folklorizm haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari bugungi kunda milliy qo'shiqchilik san'atida Xorazm vohasi qo'shiqchilik san'atining tutgan o'rni va ahamiyati xususida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy qo'shiqchilik, xorazm vohasi, folklorizm, xalfachilik, lazgi, xalq ijodiyoti, xorazm folklori

**ФОЛЬКЛОРИЗМЫ В ПЕСНОМ ИСКУССТВЕ ХОРАЗМСКОГО  
ОАЗИСА**

**Юсупбаев Мардонбек Шоназар ўғли**  
Государственный институт искусства и культуры Узбекистана  
Магистр народного творчества (фольклор и этнография)

**Аннотация:** В данной статье анализируется национальное певческое искусство Хорезмского оазиса и его развитие. Также приводятся сведения о фольклористике в национальном певческом искусстве Хорезмского оазиса. Кроме того, обсуждались роль и значение певческого искусства Хорезмского оазиса в национальном певческом искусстве.

**Ключевые слова:** народное пение, оазис Хорезма, фольклоризм, халфалик, лазги, народное творчество, фольклор Хорезма

**FOLKLOREISMS IN THE SINGING ART OF THE KHORAZM OASIS****Yusupbayev Mardonbek Shonazar ugli**State Institute of Art and Culture of Uzbekistan  
Master's student in folk art (folklore and ethnography)

**Abstract:** This article analyzes the national singing art of the Khorezm oasis and its development. Also, information about folklorism in the national singing art of the Khorezm oasis is given. In addition, the role and importance of Khorezm oasis singing in the national singing art has been discussed.

**Key words:** national singing, oasis of Khorezm, folklorism, khalfalik, Lazgi, folk art, folklore of Khorezm

Milliy o'zlikni anglash, ona vatanni sevish uni ardoqlash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish tuyg'usi-muqaddas tuyg'udir. Milliy qadriyatlarning g'oyaviy-estetik ifodasi bir qator badiiy qadriyatlarda, jumladan, xalq musiqa merosi, afsona va dostonlarda mujassamlashgan. Bu esa milliy ta'lim-tarbiya tizimini milliy madaniyat, milliy qadriyatlar zamirida shakllantirish har jihatdan to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. O'zbek musiqa folklori, jumladan Xorazm musiqa folklori millatning ma'naviy-musiqiy boyligi bo'lish bilan birga uning mazmunida milliy urf-odatlar, an'analar, Xorazm mintaliteti o'z ifodasini topgan.

Xorazm musiqa folklori o'zining musiqiyliigi, o'ynoqiligi, raqsbobligiga ko'ra insonlarni shu jumladan o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda muhim didktik vosita sanaladi. Shuning uchun ham yosh avlodni ta'limni boshlang'ich bo'limlaridan Xorazm musiqa folklori bilan maqsadli tanishtirib borish insonlarda milliy san'at namunalarini xis etish, go'zallikga intilib yashash kabi xislatlarni shakllanishida muhim o'rin tutadi. Xorazm musiqa folklori-bu shu vohadagi xalq orasida urf bo'lib, ular bilan birga yashab kelayotgan xalq qo'shiqlari, laparlar, yallalar, o'lanlar, yor-yorlar, termalar, masxaraboz o'yinlar,

turli marosimlar, xalq tomoshalari va ularda ijro etiladigan ommaviy raqs kuylari, dostonchilik, xalfachilik, qo'shiq-ashulachilikkabi kasbiy musiqa an'analaridan tashkil topgan san'atdir.

O'zbek musiqa san'atining tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm musiqasi ayni vaqtda betakror tarovat va jozibaga ega bo'lib, uning faqat shu vohaga xos xususiyatlari mavjud. Bu uslubning o'ziga xosligi uning shevasi va an'anaviy cholg'ularida ham namoyon bo'ladi. Masalan, bulamondamli puflama cholg'usi bu uslubda keng qo'llanib Xorazmning milliy cholg'usi hisoblanadi. U boshqa mahalliy uslublar uchun xos emas. Bulamon-tut daraxtidan ishlangan kichik surnay shaklidagi cholg'u bo'lib, unda yakka holda va ko'pchilik sozandachilar (ansambl) tarkibida ijro etish imkoniyati mavjud.

Xorazmda Kavkazda milliy cholg'u hisoblangan "tor" cholg'usi ham keng ommalashgan. XIX asr oxirlaridan boshlab bu yerda "Garmon" cholg'usi ham qo'llana boshlangan. Uni mahalliy xalq shevasida "soz" ham deb atashadi. Bulardan tashqari Xorazm musiqa san'ati amaliyotida deyarli barcha o'zbek xalq milliy cholg'ulari-dutor, tanbur, g'ijjak, chang, nay, qo'shnay, doira va boshqalar keng qo'llaniladi. Xorazm musiqa uslubida raqs san'ati keng o'rin olgan. Raqs va umuman o'yin harakatlari bilan bog'liq bo'lgan cholg'u kuylari o'z navbatida, bir necha turlarga bo'linadi.

Bularga: 1. Xalq orasida ommaviy tus olgan (ya'ni barcha keksayu –yosh ishtirok etishi va raqsga tushishi mumkin bo'lgan raqslar). Mazkur kuylarning kuy asosini ma'lum va mashhur "Lazgi", "Ganji qorabog", "Ufori" kabi kuylar tashkil etadi. Ushbu kuylar Xorazmga xos cholg'ular yordamida ijro etilishi va barcha qari-yosh, xotin-qizlarni qamrab olgani bilan mashhurdir. 2. Xorazmda shunday o'yin kuylari borki, bunday kuylar o'z nomi bilan xalq sayllari tomoshalarida barcha katta-kichikni o'yinga to'lib, dilxushlik qilishini bildiradi. Bunday kuylar jumlasiga "Yelpezalandi", "Ufori yelpizalandi", Nog'ora

o'yini kabi kuylarni kiritish mumkin. "Lazgi", "Norim-norim", "Qari navo", "Ey mehribonim" kabi el qalbidan joy olgan raqs kuylari va ashulalari Xorazm uslubida eng ommabop kuylardan sanaladi. Xorazm folklori, ya'ni musiqa uslubida eng yorqin va tomoshabinbop aytimlardan biri laparlardir. Ma'lumki, lapar ikki yoki undan ortiq ijrochilarni tarafma-taraf bo'lib kuylaydigan qo'shig'idir. Laparni yakka ijrochi raqsga tushib ijro etishi, lapar aytilganda raqqosalar raqs tushishi va lapar aytishuv tarzida bo'lishi mumkin.

Laparlar ko'pincha ufor usulida kuylanishi an'anaga aylangan. Qiziqchi va masxarabozlarning o'yin kuylari. Bunday kuylar Xorazmcha shevaga xos nomlar bilan yuritiladi. Bunday kuylar "Chag'olloq", "Qum pishik" "Az-az", "Az-azning tezi", "Xorazmcha", "Bir yuz bir", "Ot eroni", "Surnayyo'li" kabi nomlar bilan mashhur. Barcha san'atlarning rivoji negizida xalq og'zaki ijodi turadi. Insoniyat paydo bo'lganidan to bugungi kunga qadar san'atning adabiyot, qo'shiqchilik kabi turlarida xalq og'zaki namunalardan foydalanib kelinmoqda. Ushbu namunalarning eng go'zal turlaridan biri bu - ijrochilik san'atidir. Bu san'at inson dunyoqarashini va tafakkurini boyitibgina qolmay, uni ezgulik, yaxshilik, go'zalliklar olamiga boshlaydi. Folklor ijrochiligi, xususan Xorazm folklor ijrochiligi millatning ma'naviy, musiqiy boyligi bo'lishi bilan bir qatorda uning mazmunida milliy urf-odatlarini, an'analarni, Xorazm mentalitetini o'zida ifodalaydi. Xorazm folklor ijrochiligi qadim zamonlardan buyon o'zining musiqiyliigi, o'ynoqiligi, raqsobbligiga ko'ra boshqa hududlarning folklor ijrochiligidan ajralib turadi.

Xorazm folklor ijrochiligi - bu shu vohadagi xalq orasida urf bo'lib, ular bilan birga yashab kelayotgan xalq qo'shiqlari, laparlari, yallalari, o'lanlari, yor-yorlari, termalari va turli marosimlarda ijro etiladigan ommaviy raqs kuylari, dostonchilik, xalfachilik, qo'shiq-ashulachilik kabi kasbiy musiqa an'alaridan tashkil topgan san'atdir. Bu san'atning shakillanish tarixi uzoq o'tmishga, jumladan miloddan

awalgi XII-XI arslarga borib taqladi. Ming yillar muqaddam butun jahonga moziydan ta'lim bergan buyuk bobokalonimiz Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida yozilishicha: "Xorazm vohasiga odamlar miloddan awalgi 1292-yillarda joylasha boshlaganlar. Shundan 92 yil o'tgach, ya'ni miloddan awalgi 1200-yilda Xorazmga Kaykovusning o'g'li Siyovush kelgan va afrig'iyalar sulolasiga asos solgan". Ular kishilik jamiyatining ilk davrlaridan boshlab o'zlarining boy madaniy va ma'naviy merosiga ega bo'lganlar deb yozadi.

Keyingi yillardagi arxeologik tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar Xorazm diyori zaminimizning eng qadimiy, eng ko'xna o'lkalaridan biri bo'lganligini, bu o'lkada juda qadimdan o'troqlashgan qabilalar yashagani, ularning ovchilik, chorvachilik, bog'dorchilik va dehqonchilik madaniyati g'oyat kuchli rivojlanganligini isbotlaydi. Shuningdek, arxeologik tadqiqotlar ham qadimgi Xorazmning san'ati va madaniyati, xalqning odob-ahloqi, ma'naviyati va turmush tarzi ancha yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

Umuman Xorazm - juda qadimdan rivojlangan xalqlar yashagan o'lka bo'lib, uning xalqi eramizdan awalgi ming yilliklardan o'z madaniyati, ilm-fani, san'ati, dini, ma'naviy dunyosi, ishlab chiqarishi, hatto davlatchilik siyosatiga barcha xalqlardan ilgariroq ega bo'lganini isbotlab bergan. Bunday fikrga kelishimizga bugungi kunda ilmiy manbalar, ashyoviy dalillar yetarlidir. "Bundan qariyb 3000 yil awal dunyoga mashxur "Avesto"ni yaratgan xalq, yer yuzida g'oyat odil, yaxshilik va ezguliklar fazilati yo'lini ko'rsatib bergan payg'ambarni tarbiya etgan va dinni ifoda eta olgan Xorazm jahon tarixida, xususan, jahon madaniyati va san'ati tarixida alohida o'rin egallagani ilm-fan tadqiqotlariga muvofiq keladigan xulosadir".

O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixini chuqur tahlil qilgan olim X. Hamidov shunday yozadi: "Xorazmliklar musiqa va qo'shiq bilan bemorlarni harn davolaganlar. O'z zamonalarida yetti donishmand olimlari - Zat, Fat, Jen, Ele,

Fen, Er va Sad bemorlarni davolashni boshlab berganlar. Ular hatto kasalxonalar qurib o'zlariga yordamchi ham olganlar. Turli xil o'simliklardan dorilar tayyorlaganlar. Har bir bemor qaysi yulduz ostida tug'ilgan bo'lsa, davolash ishlarini shunga qarab boshlaganlar. Dori-darmon sifatida musiqadan ham foydalanilgan. Musiqa bilan davolashda bemorning qayerdan kelib chiqqanligi, kasbi-koriga qarab kuy tanlangan. Ijrochilar, masalan, bemor qora tanli boisa Isfaxon va Sabo maqomlari yaxshi ta'sir qilishini, oq tanlilarga Maxnr va Taxur kuylarini, sariq tanlilarga esa Husayniy va Evish (Xaftagoh) maqomlarini tavsiya qilishgan. Dono tabib qaysi dori davo ekanini bilgani kabi musiqa bilan davolashda ana shu jihatlarga e'tibor qilgan. Shuningdek, Xorazmda davolash kuylarini "puixon" deb ataganlar. Ayniqsa, bolalarda uchraydigan qizamiq kasalini "Alvon go'ynak" nomli kuy bilan davolaganlar.

Xorazm ijrochilik san'ati folklor namunalarida o'z aksini topadi. Bu qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan an'anadir. Bu an'analarning vujudga kelishi, xalq orasida yoyilishi va saqlanib qolishida muayyan ijodkorlar va ijrochilar asosiy o'rin egallaganlar. Ularning o'zlariga xos ijrochilik usullari bo'lgan. Bu an'analar keyingi va hozirgi davrlarda ham o'z mohiyati va mazmuni bilan xalq orasida saqlanib kelinmoqda. Ijrochilik san'atining bunday an'alarida turfa xil g'oyaviy estetik va funksional vazifalar o'tashi bilan bir qatorda, insonlar ijtimoiy va maishiy hayotining turli tomonlari aks ettiriladi.

Xorazm folklor namunalaridan bin bu Xorazm lazgisidir. Xorazm lazgisi qadim zamonlardan buyon xalq tilida saqlanib, sayqallanib kelayotgan, o'z o'rniga ega bo'lgan, odamlarga ko'tarinkilik, yaxshi kayiiyat ulashuvchi, Xorazm folklorini butun dunyoga mashxur qilgan san'atdir. Xorazm xalq og'zaki ijodida lazgining yaratilishi haqida turli xil afsona va rivoyatlar bor. Masalan, jonning tanaga kirish jarayonini ifodalishi haqida, iqlimning sovuq bo'lganligi va olov yoqib isinish uchun turli harakatlar orqali raqsning paydo bo'lganligi haqidagi ma'lumotlarni lazgining

yaralishiga bogiashadi. Xalq orasida qadimgi lazgi to'g'risida shunday afsona bor. Inson tanasi dastlab loydan yasilib, alohida-alohida bo'lgan ekan. Jonga "tanaga kir" deb buyuribdilar jon tanaga kirib birdan qo'rqib qaytib chiqadi. "Kir tanaga" deb qayta buyuradilar. U "qo'rqaman" debdi. Shunda ilohiydan bir kuy taralibdi. Bu kuyga maflun bo'lgan jon tanaga qanday kirganini o'zi bilmay qolibdi. Oldin barmoqlariga, panjalariga, bilaklariga, yelkalariga jon kirib, inson tirilibdi. Bu ilohiydan kelgan "Lazgi" kuyi ekan.

Xorazmda savodxon, gapga chegan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo'lgan zukko ayollarni "xalfa" deb yuritishadi. Bu atamaga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quydagicha tarif beriladi: "Xalfa - arab tilidan olingan so'z bo'lib, bir-birining ortidan borish, ergashish; o'rin almashish degan ma'nolarni anglatib, to'rt ma'nosi borligi aytiladi: birinchi, Shariat qoidalarini yaxshi biladigan o'qimishli odam; ikkinchi, Eski maktabda o'quvchilarga boshliq qilib tayinlangan, maktabdor domlaga ko'maklashadigan o'quvchi; uchinchi, o'rta asrlar ustaxonalarida hunar o'rganuvchi shogird, kasb-hunar o'rganuvchi shogirdlar boshlig'i; to'tinchi Xorazm vohasida mahalliy og'zaki ijod namunalari ijro etuvchi ayol" degan ma'nolarni anglatadi. Xorazm diyorida "Xalfa" atamasi ikki ma'noda ishlatiladi. Birinchisi, diniy kitoblarni o'qiydigan, marosim va mavludlarda rahnamolik qiladigan otinbibilar ko'zda tutilsa, ikkinchisi, kuy va qo'shiqlar kuylab, ayollarni madaniy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladigan ijrochi ayollar ko'zda tutiladi.

Ularning ikkala turi ham faqatgina ayollar uchun xizmat qilgan. "Sozi xalfa'lar san'atida jo'rnavozli va yakka ijrochilik mavjud. Ularning ansambli uch kishidan iborat bo'ladi. Xalfa, doirachi va raqqosa. Ularning uchchalasi ham qo'shiq, lapar ijro etgan. Xalfalar o'zlari ijod etgan kuy va qo'shiqlar bilan cheklanib qolmasdan, repertuaridan "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Hirliqo va Xamro", "Tohir va Zuhra", "Go'ro'g'li", "Gulqand", "Xirmon dali" kabi dostonlar bilan bir qatorda Navoiy,

Fuzuliy, Maxtimquli, Ogahiy kabi shoirlar she'rlari va boshqa mualliflarning turli marosimlarga mo'ljallangan asarlari ham o'rin olgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarhal sahifalari.–Xorazm, 1999.–51 b.
2. Ojiza (she'r va dostonlar). (nashrga tayyorlovchi fil. fanl. dokt. , prof. S. Ro'zimboev).–T.: 2003.–122
3. Olti xalfa (to'plovchi : R.Yunusov).–Xorazm, 1994.–39 b.
4. Xorazm folklori.–Urganch, 2000.–76 b.
5. Qo'chqorov G'. Folklor qo'shiqchiligi. Toshkent, 2005. 48-50 b.
6. Akbarov I.A. O'zbekskiy muzikalniy folklor. Toshkent: O'z Nashr, 1974 yil.
7. Madrimov B.X. Xorazm musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. Ped.fan. nomzodi ilm darajasini olish uchun yozgan. Dis. Avtoreferati. –T: 2008 y."Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842May 2022 / Volume 3 Issue 5www.openscience.uz1095
8. Ro'zimboev S. Xorazm vohasi o'zbek xalq qo'shiqlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Avtoref. Dis. Ped. nom. –T: 1971 g.
9. O.Hayitova. Xorazm qo'shiqchilik san'ati durdonalari. –T.: "Noshir", - 2009.
- 10.S. Xudoyberganov. "So'z va soz sohibi". Toshkent. "Ilm ziyo" 2014. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842May 2022 / Volume 3 Issue 5www.openscience.uz1096